

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133'373.611

DEMİNUTIV MORFEMALARNING SEMANTIKASI VA USLUBIYATI**СЕМАНТИКА И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДИМИНУТАТИВНЫ
МОРФЕМ****SEMANTICS AND METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DIMINUTATIVE
MORPHEMES****Axmadjonov Ilxomjon Toxirjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi,

Аннотация

Mazkur maqolada ot turkumiga mansub bo'lgan kichraytirish-erkalash shakllarining semantik nozikliklari, bu shakllarning morfosemantik jihatlari, ularning nutq uslublaridagi ko'rinishlari hamda so'zlovchi maqsadi orqali bayon etiladigan salbiy va ijobiy tomonlari bayon etilgan. Bunday ma'nolarning ifodalanishi badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslubidagi parchalar orqali dalillandi.

Аннотация

В данной статье описаны семантические тонкости уменьшительно-ласкательных форм, принадлежащих к семейству существительных, морфосемантические аспекты этих форм, их проявления в стилях речи, а также отрицательные и положительные стороны, выраженные через цель говорящего. Выражение таких смыслов подтверждалось фрагментами художественного, публицистического и разговорного стиля.

Abstract

This article describes the semantic subtleties of diminutive forms belonging to the family of nouns, the morphosemantic aspects of these forms, their manifestations in speech styles, as well as the negative and positive aspects expressed through the speaker's goal. The expression of such meanings was confirmed by fragments of artistic, journalistic and colloquial style.

Kalit so'zlar: erkalash shakllari, kichraytirish affixlari, morfema, diminutiv shakllar, sematika, uslubiyat**Ключевые слова:** формы ласки, уменьшительные аффиксы, морфема, уменьшительные формы, семантика, стилистика.**Key words:** forms of affection, diminutive affixes, morpheme, diminutive forms, semantics, methodology.**KIRISH**

Modallik (lot. modalis — o'lchov, usul) — fikrning voqelikka bo'lgan munosabatlarining turli xil ko'rinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarning subyektiv tarzda tasniflanishining turlicha ko'rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya. "Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, obyektiv va subyektiv modallik nazarda tutiladi". [1; 32] Modallik atamasi juda keng qamrovga ega bo'lgan hodisalarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Obyektiv modallik, asosan, sintaktik birliklarga nisbatan qo'llanadi. Subyektiv modallik turli til sathlariga oid birliklarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu tushuncha morfemik birliklarda ham aks etadi. "Modal forma yasovchi affixlar negiz ifodalagan predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi leksik ma'nolarga obyektiv borliqqa munosabat yoki so'zlovchining subyektiv munosabati kabi ma'nolarni qo'shadi". [2; 76]

Diminutiv ma'no ifodalovchi morfemalarning nazariy muammolarini aniqlashda va ularning nutqiy xususiyatlarini ko'rsatib berishda tavsifiy, qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

TILSHUNOSLIK

Shuningdek, modallik tushunchasi ot turkumidagi bir guruh morfemalarda ham mavjud. Ayrim manbalarda modal ma'no ifodalovchi bu morfemalar subyektiv baho beruvchi shakllar deb yuritiladi. [3; 80]

Ot turkumidagi subyektiv baho ifodalovchi shakllar ma'nosiga ko'ra 2 guruhga ajratiladi: 1) erkalash shakllari; 2) kichraytirish shakllari. [4; 49] Bu sinflanish umumiy tarzda olingan. Mazkur shakllar gap ichida erkalash-kichraytirishdan tashqari turli xil semalarni yuzaga chiqarishi, ko'plab uslubiy ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Ot turkumidagi subyektiv baho ifodalovchi shakllarga *-jon, -xon, -bek, -cha, -choq, -chak, -loq, -kay, -toy, -gina, -bonu, -ali, -sh, -y* kabi affiks va affiksoïdlar birlashadi.

Bu shakllar subyektiv baho ifodalashi tomondan birlashsa, ayrim xususiyatlariga ko'ra farqlanib turadi. *-xon, -bek, -kay, -toy, -ali, -bonu, -poshsha, -oy, -boy, -niso, -zor, -sho* kabi morfemalar faqat shaxs ma'nosini ifodalovchi leksemalarga qo'shiladi.

-jon, -choq, -loq, -toy, -gina, -cha morfemalari shaxs ma'nosini anglatuvchi leksemalar bilan bir qatorda narsa, belgi kabi semalarni ifodalovchi leksemalarga qo'shila oladi.

Masalan:

*-Kapalakjon, beri kel,
Buncha parvoz etasan.
-Meni quvma, Erkinjon,
Gulni bosib ketasan. (Olim Mahkam)*

Mazkur misolda *-jon* affiksi shaxs bildiruvchi leksemaga (Erkinjon) va predmet ifodalovchi leksemaga (kapalakjon) qo'shilgan. *-jon* morfemasi boshqa subyektiv baho ifodalovchi morfemalardan semantika va uslubiy tomondan ancha erkin, beqaror mazmun kasb etishi bilan farqlanib turadi. Mazkur morfema erkalash ma'nosini ifodalaganda o'g'il bolalar ismiga qo'shilib kelishiga guvoh bo'lamiz. *-jon* affiksi inson ismlariga qo'shilib kelganda nafaqat erkalash, balki ayrim o'rinlarda matn mazmuniga mos ravishda hurmat ma'nosini anglatishi mumkin. Ayrim hududlarda yoki badiiy uslubda *-jon* morfemasi ayol kishi semasini ifodalovchi leksemalarga ham qo'shilib kelishi mumkin.

Masalan:

*Nodirajon, Shoirajon,
Tanam qimir etmaydi.
Osmon to'la havolar
Faqat menga yetmaydi.*

Mazkur holatlarda ham *-jon* affiksi erkalash ma'nosida qo'llanadi. Subyektiv baho ifodalovchi shakllar rod kategoriyasi jihatidan so'zlarga qo'shilishini hisobga olsak, *-jon* affiksi bu tomonlama jins tanlamas shakl ekanligiga guvoh bo'lamiz.

-jon affiksoïdi ayrim hollarda makon, o'rin ifodalovchi so'zlarga qo'shilib, o'sha joyga nisbatan hurmat, suyish kabi uslubiy ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Masalan: *Muhabbatga ko'p ishonmang, muhabbatga,
Turkman qiz ham yor bo'lmadi Muhammadga
Opajonlar orzu-havas tilasangiz,
Qo'qonjonga qiz uzating, Qo'qonjonga.*

-jon morfemasi shaxs otlariga qo'shilib kelib, turli xil ma'nolarni ifodalashi mumkin. Erkalash-suyish ma'nosi, ba'zan yalanish-erkalash ma'nosi yuzaga chiqishi mumkin. "Uchrashuv" filmidagi "Imtihon" sahnasida domla va talaba suhbatida mana shu ikki xil holat yuzaga chiqadi.

Masalan: *- Suvda juda xususiyat ko'p, domlajon. Suv bu – obihayot. Mazkur misolda erkalash-suyish ma'nolari aks etgan.*

-Iye, domlajon, yaxlitgina beshni parchalab nima qilasiz, yirikkina qilib o'zini qo'ya qolmaysizmi, domlajon. Bu misolda erkalash-suyishdan ko'ra yalanish-erkalash ma'nosi bo'y ko'rsatgan.

-jon morfemasi yalinish-yolvorish ma'nosida qo'llanishi mumkin. Bunday ma'noning aniq yuzaga chiqishida o'tinib so'raladigan shaxs ma'nosi bor leksemalar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan:

Qavs bog'lariga tun tushayotir,

*Dilni bir xavotir ezdi ko'p yomon.
Agar u tush bo'lsa
Ming yildan beri
Kimga asrayapsan meni, Xudojon.*

(Sitara Sayfullayeva)

-jon morfemasi predmet semali leksemalarga qo'shilib kelish imkoniyatiga ega. Bunday holatda mazkur morfema orqali matn mazmuniga mos ravishda turli xil uslubiy ma'nolar yuzaga chiqadi. Masalan:

*Jon quyoshjon,
Yon quyoshjon,
Otdi oppoq
Tong quyoshjon. (Odil Abdurahmon)*

Yuqoridagi parchada -jon affiksi erkalash, suyish kabi ma'nolarni aks ettirgan.

-jon morfemasi ayrim ismlar tarkibida qotib, singib qolgan bo'ladi va erkalash-suyish, hurmat kabi ma'nolar yuzaga chiqmaydi. Masalan, Otajon, Qorajon ismlari bu fikrlarga yaqqol dalil bo'la oladi.

Mazkur affiks so'zlovchi tomonidan piching, kinoya, kesatiq ma'nolarida ham ishlatilishi mumkin. Erkalash, hurmat ifodalovchi bu qo'shimchalarsiz qo'llanilayotgan ismlar nutq vaziyatiga qarab biror maqsad bilan ishlatilgan shu kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi.

-xon morfemasi o'zbek tilida affiksoid sifatida qaraladi. Bu morfema aslida qoon, xoqon so'zidan kelib chiqqan, deya ta'kidlaydi Z.Ma'rufov. [5; 45] S.Usmonov -xon morfemasini hurmat ma'nosini ifodalovchi affiksoid deya izohlaydi. [6; 126]

Xon so'zining etimologiyasi turkiy xalqlar va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvonini anglatadi. O'zbek tilida bugungi kunda o'ziga mustaqil, ya'ni hech kimga tobe emas ma'nosida qo'llanadi. Masalan, *O'ziga xon, ko'lankasi maydon. O'ziga xon, o'ziga bek.*

Morfemasi sifatida -xon affiksi, asosan, ayol kishini ifodalaydigan ismlarga qo'shilib hurmat, erkalash kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Masalan:

-xon affiks ayrim qizlar ismidagi qotib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan. Bunday shakllarda hurmat va erkalash ma'nosi yo'qolgan hisoblanadi. Masalan: Oyxon, Enaxon kabi ismlar bularga misol bo'la oladi.

Mazkur morfema ayrim hududlarda yoki nasl-nasabni ifodalaydigan o'rinlarda erkak kishi ismlariga qo'shib aytiladi. Masalan, Muhammadxon, A'zamxon, Saidxon kabi.

Ota va ona so'zlariga qo'shilib keladigan -xon morfemasi hurmat va erkalash ma'nosidan tashqari yoshi ulug'lik, keksalik kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, *Siz, muhtaram otaxon va onaxonlar, mehribon opa-singillarimiz, navqiron yoshlarimiz, butun xalqimizni yangi yil bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman.* (Prezident nutqidan)

-jon va -xon morfemalarining ota hamda ona so'zlariga qo'shilganda anglatayotgan ma'nolari bir-biridan farqlanib turadi. Bu leksemalarda -jon morfemasi hurmat, suyish, erkalash ma'nosi yuqoriroq. -xon morfemasi keksa insonlarga nisbatan ishlatilishi bilan bu morfemadan ajralib turadi. Masalan,

*Yo'lingga intizor bo'ldim, otajon,
Baloga mubtalo bo'ldim, otajon,
Dushmanga xor-u zor bo'ldim, otajon,
Bir ko'rmoqqa xumor bo'ldim, otajon. ("Ravshanxon" dostoni)*

Bu morfemalarning yuqoridagi leksemalardagi yana bir farqi -jon affiksi o'z otasi yoki onasiga nisbatan -xon morfemasi boshqa shaxslarga nisbatan qo'llanadi.

-xon affiksi ayrim shaxs otlariga, chunonchi, aka, uka, opa kabi so'zlarga qo'shilganda piching, kinoya ma'nolari yaqqol bo'y ko'rsatadi. Masalan: "*Akaxonlar* iltimos qilishuvdi, yo'q deya olmadim, dedi aybdor bolaning holatida.

- Kim u *akaxonlaring*?

Bo'tqa Asadbek hurmat qiladigan ikki odamning nomini aytishga aytib, "Ishqilib tekshirib qolmasin-da", deb cho'chidi". ("Shaytanat" romanidan)

Mana shu leksemalarda ham -jon va -xon morfemalari o'rtasidagi

TILSHUNOSLIK

uslubiy farqni anglash mumkin. Akajon leksemasida hurmat ma'nosi, akaxon leksemasida salbiylik bo'yog'i mavjud.

-bek morfemasi affiksoid sanaladi. Bu leksema turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo'lgan shaxs ma'nosida qo'llanangan. Hozirgi zamon o'zbek tilida erki o'z qo'lida, hech kimga qaram bo'lmagan inson ma'nosida ishlatiladi. Masalan, o'ziga xon, o'ziga bek.

Bek leksemasi morfema sifatida shaxs semasi mavjud bo'lgan so'zlarga qo'shib turli xil ma'nolarni ifodalashi mumkin. Bu morfemaning yuqorida izohlab o'tilgan morfemalardan oldinroq yuzaga kelganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, "**Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bilan to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytg'on emas**". (Boburnomad)

Tarixiy asarlar –bek morfemasining ayollar ismiga qo'shib kelgan va bu orqali o'sha shaxsning ma'lum tabaqaga mansub ekanligini bildirgan. Masalan, **To'rabekxonim** maqbarasi.

Bugungi kunda mazkur morfema yoshi kichik o'g'il bolalar ismiga qo'shib, asosan, erkalash, yoshi kattaroq shaxslar ismiga qo'shilganda hurmat ma'nosini ifodalab kelmoqda. Masalan, **Nodirbek, Sanjarbek**.

Hozirgi kun zamonaviy so'zlashuvda o'g'il bolalar ismiga –**chik** shakli qo'shib murojaat qilish holatlari ko'zga tashlanadi. Bu shakl kichik yoshdagi bolalar ismiga qo'shilgan holda erkalash, suyish kabi subyektiv baho berish maqsadida ishlatiladi. Masalan, Nozimchik, Murodchik kabi ismlar misol bo'la oladi.

Qiz bolalar ismiga yoki qiz bola semasiga ega bo'lgan ayrim leksemalar tarkibida –sh qo'shimchasining mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bunda qo'shimchada ham erkalash ma'nosining aks etishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, **onash, Fotish** kabi leksemalar bunga misol bo'la oladi.

-sher affiksoidi ayrim o'g'il bola ma'nosini ifodalovchi ismlarga qo'shilgan o'rinlari ham mavjud. Masalan, **Nozimsher, Iqbolsher** kabilar.

–gina affiksi shaxs, narsalarni ifodalovchi leksemalar tarkibida kelish imkoniyatiga ega. Bu shakl achinish, qayg'urish kabi subyektiv ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. Masalan,

Onaginam!

Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol,

Qayon boqsang, shaylanishlar va sozlashlar tor,

Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol

"Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor". (H.Xudoyberdiyeva)

Mazkur she'riy parchadagi onaginam leksemasida –gina morfemasi qayg'urish, achinish ma'nolarini ifodalaydi.

Ot turkumida erkalash, modal ma'no anglatuvchi morfemalardan tashqari kichraytirish ma'nosiga ega bo'lgan affiksalar ham mavjud. Bunday qo'shimchalar ayrim ilmiy manbalarda "deminutiv morfemalar" deb yuritiladi. [3; 31]

–cha affiksining asosiy ma'nosi kichraytirish hisoblanadi. Masalan,

Bir ayvoncha, ayvoncha labida hovuzcha,

Hovuzcha labida hovoncha, hovoncha ichida

Bir hovuchcha dovuchcha bor. (Tez aytish)

Ayvoncha, hovuzcha leksemalaridagi –cha morfemasi kichraytirish ma'nosini bildirmoqda. Lekin bu morfema har doim ham kichraytirish ma'nosini bildiravermaydi. Ayrim o'rinlarga o'ziga xos xususiy ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan,

O'ksimasin zardob to'la ko'ngilchangiz,

Daryo-daryo ko'z yoshim bor cho'milsangiz. (M.Yusuf)

Yuqorida keltirilgan she'riy parchadagi ko'ngilchangiz leksemasida –cha affiksi kichraytirish ma'nosi bilan bir qatorda kesatiq, piching kabi subyektiv baho ifodalagan.

–cha affiksi erkalash ma'nosini ham ifodalab kelishi mumkin. Bunday hollarda qo'shimcha subyektiv baholar kichraytirish ma'nosi bilan hamroh holda, kichraytirish ma'nosining ustiga qo'yilgan holda yuzaga chiqadi. Kichraytirish ma'nosi+boshqa subyektiv ma'nolar ifodalanadi. Masalan, qizaloqcham, singilcham kabi leksemalar misol bo'la oladi. Ayrim hududlarda opa leksemasi tarkibida –cha morfemasining qo'shilgan holda talaffuz qilinishi kuzatilib turadi. Bu asosan, murojaat uchun ishlatilib, –cha shakli hurmat ma'nosini anglatadi. Masalan, *Yanayam*

ishonchli bo'lsin deb, kitob ko'mgan yerlarimning qartasini chizib YUNESKOning gadoytopmas saytlaridan biriga, orqa tuynugidan kirib, hatto o'sha mo'tabar tashkilotning o'ziyam bilmaydigan internet tokchalaridan biriga joylab qo'ydim. Chunki bu ablahlarga ham ishonib bo'lmaydi, Doda bilan tili bir chiqib qolishi mumkin, bitta **opachamiz** o'sha yerda ishlaydi axir! Faqat tirikilay ko'milgan u kitoblarim bu gal yer tagida uzoq qolib ketmas deb umid qilaman. (N.M.Raufxon)

-chak affiksi kichraytirish xususiyatiga ega. Lekin bu morfema hajmi kichraytirmay, insonlar yoshini, holatini kichraytiradi. Boshqa kichraytirish qo'shimchalar farqi yosh bilan bog'liqligi hisoblanadi. Masalan,

*Dilbar **kelinchakning** ko'ksida g'ulu,
Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u...
Bahor tetapoya go'dakday shirin.* (A.Oripov)

-chak affiksi kelin leksemasining vaqt jihatidan yangiligi, yoshroq ekanligini ifodalab kelgan. -chak morfemasi kelin leksemasini ijobiy bo'yoq bilan ta'minlagan. Bu affiks boshqa kichraytirishni ifodalovchi morfemalardan bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Taqqoslash uchun kelin va kelinchak leksemalaridagi ma'noga e'tibor berishni o'zi yetarli.

-choq morfemasi hayvonlarni ifodalovchi leksemalar tarkibida kelib kichraytirishni ifodalaydi.

Masalan,

*Kelajak **toychog'**-u toyingizdadir,
Jannat ham, albatta poyingizdadir,
Vatan-ku, Siz turgan joyingizdadir,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi
Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.* (A.Oripov)

-choq morfemasi qo'shilgan leksemalar hayvon ma'nosida qo'llanmaganda, ya'ni shaxs semali leksemalar tarkibida kelganda kichraytirish ma'nosi bilan bir qatorda erkalash ma'nosini ham anglatadi. Masalan,

*Onam meni erkalab,
"Qo'zichog'im" deydilar.
Qo'zichoqlar ma'rashib,
O't-o'lanlar yeydilar...* (O'.Rahmonberdiyev)

Egalik affiksini olgan qo'zichog'im leksemasidagi -choq affiksi kichraytirish+erkalash ma'nosiga ega. Keyingi qo'zichoq leksemasida esa faqat kichraytirish ma'nosi aks etgan.

-kay va -(a)loq morfemalari kichik yoshdagi bolalarni ifodalovchi leksemalarga qo'shib keladi. Ikkisi ham kichraytirish ma'nolarini ifodalaydi. -kay va -aloq leksemalari o'rtasidagi farq shundaki, -kay morfemasi o'g'il bolani ifodalash uchun, -aloq morfemasi qiz bolani ifodalash uchun ishlatiladi. -aloq morfemasida kichraytirish ma'nosidan tashqari erkalash ma'nosi ham yuzaga chiqadi. Masalan,

*Joning omon bo'lsin, ko'zlari munchog'im,
Gohida horganimda chin ovunchog'im.
Dunyolarga alishmasman, **qizalog'im**,
O'zing menga Alloh bergan nur, charog'im.* (Bayram O'serov)

-loq affiksi shaxslardan tashqari hayvonlarning bolasini kichraytirishni ifodalab kelish imkoniyatiga ega. Tuyaning bolasi bo'ta deyiladi. Ayrim o'rinlarda esa uni bo'taloq tarzida ishlatilish holatlari ham uchrab turadi.

-kay morfemasi, deyarli, kichraytirish ma'nosini ifodalaydi. Erkalash va boshqa ma'nolarda kelish esa so'zlovchining maqsadi, ohangiga bog'liq bo'ladi. Masalan,

***Bolakay** koptok tepib,
O'yinga xo'p berildi.
Bir payt koptogi uchib,
Derazaga urildi.* (A.Pulatov)

-ak morfemasi ham kichraytirish xususiyatiga ega. Bu morfema asosan predmetlarni kichraytirishni ifodalaydi. Kichraytirish ma'nosidan tashqari boshqa yondosh ma'nolarga ega emas. So'zlovchi bu morfema orqali subyektiv baho ifodalay olmaydi. Masalan,

*Ko'prik – transport uchun, Siz uchun – **yo'lak'***

TILSHUNOSLIK

*U yerga piyodalar ko'chasidan boring,
"O'tish" siz uchun tanish bo'lgan joyda.
Svetaforda – qizil chiroq! (V.Sematinnin)*

Yo'l va yo'lak leksemalari o'rtasidagi semantik farq yo'lakning kichikroq ekanligida. Bu kichiklik ma'nosi **-ak** shakli orqali hosil bo'lgan.

XULOSA

O'zbek millatiga xos shaxslar insonni hurmatlash uchun ismlarga yoki murojaatni ifodalovchi leksemalarga turli xil morfemalarni qo'shib o'z shaxsiy munosabatlarini bildirishlari chegarasiz hamda bu holat ko'plab kuzatiladi.

Mazkur modal ma'no ifodalovchi morfemalar bir paradigmada birlashsa-da, ma'no nozikliklari va qo'llanishiga ko'ra bir-biridan ancha farqlanib turadi. Bu morfemalarni qanday yoki nima maqsadda qo'llash so'zlovchining maqsadi bilan amalga oshadi.

Deminutiv morfemalar nafaqat kichraytirish ma'nosini ifodalashi, balki o'ziga xos subyektiv baholarni anglatishini lisoniy misollar orqali kuzatdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T, O'qituvchi – 1995-y. 32-bet.
2. S.Usmonov. O'zbek tilida so'zning morfologik tuzilishi. T. – 2010. 76-bet.
3. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T, O'qituvchi – 1985-y. 80-bet
4. N.Mahmudov va boshqalar. 10-sinf ona tili darsligi. T – 2017. 49-bet.
5. Ma'rufov Z. So'z sostavi. Ot va sifat. 45-bet.
6. S.Usmonov. O'zbek tilida so'zlarning grammatik formalari, 126-bet.